Tugmalar (knopka). Adabe Flesh da tugmalar, biz ularga javob qila oladigan keng xodisalar ro‘yxatiga egadir.

- Press–kursor tugma atrofida bo‘lsa, sichqon klavishi bosilgan holat;
- Release-sichqon klavishi bosilmagan, bunda kursor tugma atrofida holatida;
- Release Outside-sichqon tugmasi bosilmagan, sichqon kursori tugma atrofida emas;
- Roll over-sichqon kursori tugma atrofida;
- Roll out-sichqon kursori tugma atrofida emas;
- Drag over-kursor tugma sohasida, tugma va sichqon tugmasi bosilgan;
- Key press (“tugma”)-“tugma” bosilgan.

Flesh (key ob’ekt) ma’lumotnomasida tugmalar ro‘yxatini qarash mumkin, yoki kerak tugmani kirgizish uchun parametrlar panelidan foydalanish mumkin.

Baxtga qarshi, Flesh faqat siqonchanning chap tugmasigina tushunadi. O‘ng tugma esa kontekst menyuni chaqirishnigina tushunadi. Biror-bir Flesh multikda o‘ng tugmani bosing). Flesh da o‘rta tugma yoki “g‘ildirak”dan foydalanish mumkin emas.

MOVIE CLIPDA ASOSIY BAJARILADIGAN ISHLAR

Flesh da asosiy amallar simvollar bilan monipulyatsiya qilishga asoslangan. Amalda hamma asosiy amallar, va hamma effekt va tryuklarni amallar asosidagina bajariladi.


Chaqirish mumkin bo‘lgan klip funksiyalari (movie clip) quyidagilardir:

- Play () – klipini boshidan yoki boshqatdan qo‘yadi;
- Stop () – klipni to‘xtadi;
- Go to and Play () – aniq bir kadr (ssena) o‘tib, klipni to‘xtatadi.

O‘zgartirish va o‘qish mumkin bo‘lgan klip xossalari (parametrlari):

- _x_y – klip koordinatalari (pikselda);
- _xscale,_yscale – vertikal va gorizontal bo‘yicha mos ravishda klip moshtabi (protsentda);
- _width,_height – klip balandligi va kengligi (piksellarda);
- _rotation – klipni aylantirish burchagi (graduslarda);
- _alpha – klip shaffofligi (protsentlarda);
- _visible – ko‘rinishlik.

Nomlar. Ob‘ekt nomi-simvol aniq nus‘hasining nomi. Nomlar faqat harf, raqam va tagiga chizish (“-----”) belgilardan iborat bo‘lishi mumkin, faqat nom raqamdan boshlanmasligi kerak.



2.12-rasm Instance paneli, yo‘llar.

Boshqa sathdagi ob‘ektlarga murojaat etish uchun ungacha bo‘lgan yo‘lni bilish kerak. Shu bilan birga yo‘l absolyut (ierarxilning eng yuqori sathidan) va nisbiy (joriy sathidan) holda ko‘rsatilish mumkin.

Tezlik va kadr-dan-kadrga chiroyli o'tish, siz harakat uchun ajratgan kadrlar soni va sizning Flesh filimingiz (movie) tezligiga bog'liqdir. Sifatli Animatsiya uchun tezlik sekundiga 25-30 kadr bo'lishi kerak. Flesh da oraliq tasvirlarni yaratishda 2 ta variant mavjuddir- motion tweening (Animatsiyani simvollarni modifikatsiya qilish asosida yaratish) va shape tweening (Animatsiyani formani o'zgartirish asosida yaratish). Bu usullar bir-biridan tubdan farq qiladi. Birinchisi ko'proq qo'llaniladi, chunki uning yordamida ko'pgina Animatsiyalar quriladi. Ikkinchisi esa formalarni o'zgartirish kerak bo'lganda ishlatiladi.


Shape tweening formalarni o'zgartirish asosida Animatsiyani qurishda figuraning quyidagi parametrlari modifikatsiya qilinadi: forma, joylashgan o'rni, o'lcham (hohlagan parametrlarda), rang, aylanish burchagi.

Motion Tweening. Flesh da ko'p ishlatiladigan Animatsiya texnikasi motion tweening dir. Bu holda Animatsiya simbolni modifikatsiya asosida quriladi, ya'ni Animatsiya ob'ekti simvoldir.

II BOB. KVANT FIZIKASIDAN LABORATORIYA MASHG'ILOTLARI UCHUN INTIRAKTIV DARSLIK YARATISH


2.1 Intiraktiv darslik dizaynini ishlab chiqish

Dastlab Adabe Flesh daslurini ishga tushiramiz.




3.1-rasm Adabe Fleshning bosh oynasi

Ishchi maydonning o'lchamini to'g'irlab olamiz. Bunda biz 1024x769 o'lchamini tanlab olamiz.




3.2-rasm Ishchi oyna


Endi Interaktiv darslik uchun uchun fon tanlab olamiz



3.3-rasm fon tanlash




3.4-rasm fon tayorlash jaroyoni




3.5-rasm fon tayorlash jaroyoni

Endi tugmalarni birin ketin joylashtirib chiqamiz.




3.6-rasm Tugmalarni joylashtirish

Keyingi jaroyon yuqori va pastki qisimiga tirt joylashtiramiz




3.7- rasm Titr joylashtirish




3.8-rasm Tugmalarga yozish

2.2 Intraktiv darslik yaratish kema ketligi

Absolyut qora jism – Tushayotgan istalgan chastotadagi nurlanishni, istalgan temperaturalarda yutish xususiyatiga ega bo'lgan jismlar absolyut qora jismlar deb ataladi. Keyingi ishimiz absolyut qora jismning nur yutish va qaytarish qobiliyatini Animatsiya orqali ifodalaymiz.




3.9-rasm Absolyut qora jismning yorug'lik yutishini tasvirlash




3.10-rasm Absolyut qora jismning yorug'lik yutishini yakuniy qisimi

Qizdirilgan jismlarning nurlanishi - issiqlik nulanishi moddaning atom va molekulari issiqlik energiyasi harakati hisobiga va barcha jismlarga xos yuqori temperaturalarda hosil bo'ladi. Issiqlik nurlanishida muvozanat saqlanadi – jism birlik vaqtda qancha energiya yutsa shuncha energiya nurlaydi (sochadi). Endigi bajaradigan ishimiz qizdirilgan jismlarning nurlanishini tasvirlashdan iborat. Buning uchun biz nur tarqatadigan jismlarni tasvirlab olamiz va nur tarqalishini aks ettiramiz.




3.11-rasm Nur sochuvchi jismlarni tasvirlash




3.12-rasm Jismdan nur sochilishi

Keyingi bajaradigan ishimiz Tomsonning atom modelini tasvirlashdan iborat. U atom qanday zarralardan tashkil topganligini modelini yaratgan. Atom elektiron va proton deb nomlanuvchi zarralardan tashkil topganligini aniatsiya orqali ko'rsatib beramiz.




3.13-rasm Tomson modelini tasvirlash





3.14-rasm Tomson atom modeli

Keyingi ishimiz Rezerfordning atom planetar modelini qurib chiqishdan iborat. Rezerford tajribasida shunday xulosaga keladi: atomning butun massasi mujassamlashgan markazida musbat zaryadlangan yadro joylashgan. Umuman olganda atom neytral bo'ladi. Yadro atrofida, planetalarga o'xshash, yadroning kulon kuchlari ta'sirida elektronlar aylanadilar. Endi shu tajribani Animatsiya orqali tasvirini chizamiz.




3.15-rasm Rezerfordning atom planetar modeli

Bu yerda  yadro hisoblanadi. Turli elementlarning yadrolari ikki zarradan tashkil topgan. Ular proton va neytrondir. Yadroning atrofida elektironlar mavjud.




3.16-rasm Atom yadrosining tuzilishi

Keyingi ishimiz Spontan nurlanishini tasvirlash. Atomning bir holatdan ikkinchi holatiga o'tishida o'z-o'zidan nurlanishi *spontan nurlanish* deb ataladi



3.17-rasm Spontan nurlanishini ifodalash.

Oxirgi yakuniy qisimida muallif ya'ni o'zim haqimda.



3.18-rasm Muallif haqida

III BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

3.1 EKOLOGIK MONITORING

Tabiat muxofazasi Texnika taraqqiyoti bilan bir qatorda sanoat korxonalari, ishlab chiqarish sexlari, qolaversa, tabiiy boyliklardan meʼyoridan ortiq foydalanish atrof-muhitga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Viloyat Tabiatni muhofaza qilish qoʻmitasi huzuridagi analitik nazoratga ixtisoslashtirilgan inspeksiyasi hamda sanoat korxonalari sanitar laboratoriyalari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda suv, tuproq, atmosfera havosini turli zararli kimyoviy moddalar, chiqindilar va boshqa turdagi moddalar bilan ifloslanishini kimyoviy tahlillar orqali kuzatib boradi. Bu yerda olib borilayotgan ishlar xususida inspeksiya boshligʻi Xayrulla Baqoyev bilan suhbatda boʻldik.– Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yildagi 111-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga binoan viloyatimiz hududida ekologik ifloslantiruvchi manbalar monitoringi qanday tartibda olib boriladi va uning mohiyati nimadan iborat?

Atrof-muhit ifloslanishi darajasini aniqlashda analitik tahliliy nazoratning oʻrni katta. Bunda atmosfera, suv, tuproq tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar kimyoviy tahlil yoʻli bilan aniqlanib, ularning kelib chiqish manbalarini tugatish choralari koʻriladi. Ekologik monitoring koʻp maqsadli axbarot tizmi boʻlib, uning vazifasi atrof-muhitga taʼsir etuvchi manba va chiqindilarni kuzatish, baholash hamda aniqlashdan iborat.

Tabiatni muhofaza qilish, yer osti va yer usti boyliklaridan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini taʼminlash qoida-talablarini amalga oshirishda namoyon boʻladi. Shuningdek, muntazam nazorat olib boruvchi kuzatuv tizmi tomonidan bizni oʻrab turgan atmosfera qatlamining ifloslanish darajasi, holati baholanadi hamda taʼsir etuvchi salbiy jarayonlar aniqlanib, ularning oqibatlari bartaraf etiladi. Bunda har bir korxonalar, tashkilot, muassasa atrof-muhitning

ifloslantiruvchi manbai bo'lsa, bu hududlar va uning atroflaridagi suv, tuproq, havosi kuzatilib, kimyoviy tahlillar olib boriladi.– Monitoring dasluriga kiritilgan korxonalar yer maydonlari monitoringi qanday belgilangan?

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika Kengashining 2008 yil 1 maydagi 1-sonli yig'ilish qaroriga binoan viloyat bo'yicha 17 ta korxonada, shujumladan, atmosfera havosi bo'yicha 8 ta 1-,2-toifali korxonalarda har oy, oqava suv bo'yicha 2 ta 1-,2-toifali korxonalarda har chorak, tuproq ifloslanishi bo'yicha 7 ta korxonada, muqaddam qishloq xo'jaligida foydalanilgan eski aerodromlar egallagan yer maydonlarida bahor va kuzoylarida monitoring nazorati o'tkazish belgilangan.

Mavjud sanoat korxonalari atmosfera havosiga ta'sir ko'rsatadi. Ayting-chi, shahrimiz atmosfera havosining monitoringi qanday tashkil etilgan?– Atmosfera monitoringini olib borish bo'yicha Hidrometeorologiya boshqarmasiga qarashli kuzatuv postlari muntazam faoliyat olib boradi. Shahrimizdagi mavjud bunday postlardan olingan ma'lumotlar umumlashtirib boriladi. Navoiy shahar Hidromet KLMZPS laboratoriyasi, "Navoiyazot" OAJ sanitar laboratoriyasi va boshqa maxsuslaboratoriyalar bilan yil davomida hamkorlikda shahar sanoat zonasida joylashgan korxonalarning atmosfera havosidan namunalar olinib, tahlil etish ishlari yo'lga qo'yilgan. Atmosfera havosi bo'yicha barcha monitoring nazorati o'tkazilgan korxonalarning gaz-chang tozalash inshootlari samaradorligi 90-95 foizga yetkazildi. Jumladan, "Qizilqumцемент" OAJda 99,7 foizni, "Navoiy-azot" OAJda 91,7 foizni, "Navoiydonmahsulotlari" korxonasida 95,0 foizni tashkil etdi. Olib borilgan monitoring kuzatuvlari natijasida atmosferaning ifloslanishini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qonun buzilishlariga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan 880 ming so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanilib, tegishli choralar ishlab chiqishga qaratilgan talabnomalar kiritildi. Bu borada sanoat korxonalari tomonidan qanday loyihalar amalga oshirilmoqda?

“Navoiyazot” OAJ tomonidan sof rivojlantirish mexanizmi bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha bo‘yicha ishlab chiqarish ekspluatatsiya ishlari olib borilayapti. Korxonaning o‘z mablag‘i hisobidan SRMdasluriga asosan metodik qo‘lanmalar ishlab chiqarilib, bu hujjatlar ekspertizadan o‘tkazilgan. Azot oksidlarini kamaytirish bo‘yicha loyihani amalga oshirish davrida o‘tkazilgan monitoringlar natijasida 1 million 710 ming tonna azot oksidlarining kamayishiga erishilgan. Bu ekologik muhitni barqarorlashtirishdagi katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish borasida aniq maqsadga yo‘naltirilgansiyosat olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan qonun va qarorlar ijrosini ta‘minlash maqsadida inspeksiyamiz ham analitik tahlilni yanada takomillashtirib, kelajak avlodlar uchun zamin musaffoligini, insonlar salomatligini saqlashda o‘z hissasini qo‘shib boradi. Atrof-muhitga zarar yetkazishning oldini olishni ta‘minlash nafaqat soha xodimlarining, balki har bir fuqaroning burchidir.

Ekologik monitoringni tashkil qilish, uning maqsadi va vazifasi

Bizni o‘rab turgan tabiat yoki atrof-muhitning monitoringi biosferaning holatini kuzatish va undagi o‘zgarishlarni uzoq vaqt davomida o‘rganish hamda baholashni o‘rganadi. Bundan tashqari antropogen omillar ta‘sirida inson sog‘ligi boshqa tirik organizmlar ning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi jiddiy vaziyatlarning oldini olishni maqsad qilib qo‘ygan. Monitoring kuzatishlarning hajmidan kelib chiqib, o‘rganadigan joining katta-kichikligiga qarab monitoring uchga bo‘linadi: *global, hududiy va lokal(bir-biriga bog‘liq)* monitoring.

Global monitoringning bosh vazifasi-butun dunyoda bo‘layotgan jaroyonlarni va antropogen omillarning biosferaga ta‘sirini o‘rganishdir. Hududiy monitoring-o‘z ichiga ma‘lum bir hududda kechayotgan jaroyonlarni, ularning boshqa hududlardan ko‘ra rivojlanishidagi farqi, antropogen omillarning shu joyda tabiat ta‘sirida o‘zgarib borishi kabilarni o‘rganadi. Lokal monitoringning vazifasi-tabiatda boradigan tabiiy

jaroyonlarni kuzatib borish, ma'lum bir hududda antropogen omillar ta'sirini o'rganishdir. Bizni o'rab turgan atrof-muhitning monitoringi uzoq muddatli bir qator murakkab kuzatish tizmini o'z ichiga olib biosferadagi o'zgarishlarni aniqlaydi, antropogen omillarning ta'sirida vujudga keladigan salbiy oqibatlarini o'rganadi, inson va boshqa tirik organizmlarning hayotiy omillariga ta'sir ko'rsatadigan jarayonlarning kelib chiqishini kompleks holda o'rganib boradi.

Monitoring termini ekologiya faniga o'tgan asming 20 yillaridan so'ng kirib keldi, «monitoring» so'zi kishilarga atrof-muhitning holatini uzluksiz kuzatish so'zini anglatadi. Ilmiy adabiyotga monitoring so'zi 1972 yil iyunda o'tkazilgan BMT ning atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha konferentsiyasida kiritildi. Bugungi kunda monitoring so'zining ma'nosi atrof-muhitni nazorat qilish deb tushuniladi va o'Z ichiga uch asosiy ish vazitlmi oladi;

- 1) kuzatish va nazorat-bizni o'rab turgan atrof-muhitni uzluksiz kuzatib borish;
- 2)taxmin qilish (prognoz)-tabiatda tabiiy va antropogen omillar ta'sirida bo'ladigan o'zgarishlarni old in dan aniqlash;
- 3) boshqarish - atrof-muhitda bo'ladigan tadbirlarni boshqarish yoki tartibga olib borish.

3.2 RADIOAKTSIYANING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Radioaktivlik— atom yadrolarining ion nurlanishlari chiqarishi natijasida boshqa bir atom yadrolarining hosil qilishidir. Radioaktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekulalarida ionlar hosil bo'ladi. Bunday ionlovchi nurlanishlarga rentgen nurlari, radio va gamma nurlari, alfa va beta nurlari, shuningdek, neytron oqimlari kiradi. Alfa nurlari katta ionlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan, harakat doirasi katta bo'lmagan geliy atom yadrosining musbat zaryadlangan zarrachalari hisoblanadi. Harakat doirasi katta bo'lmaganligi sababli inson teri qavatigagina ta'sir qilib, terini yorib kira olmaydi, shuning uchun ham uncha zararli emas. Beta nurlari radioaktiv

moddalarning atom yadrolari tarqatadigan elektiron yoki pozitron oqimidir. Bu nurlarning harakat doirasi ancha keng va yorib kirish qobiliyatiga ega. Shu sababli ham inson uchun xavflidir.

Gamma nurlari ionlash qobiliyati katta bo'lsa-da, katta yorib kirish kuchiga ega bo'lib, yadro reaksiyalari va radioaktiv parchalanish natijasida vujudga keladigan yuqori chastotadagi elektromagnit nurlari hisoblanadi. Rentgen nurlari moddalarni elektiron oqimlari bilan bombardimon qilganda ajralib chiqadigan elektromagnit nurlaridir. Ularni har qanday elektrovakuum qurilmalarida hosil qilish mumkin. Bu nurlarning ionlanish xususiyatlari oz bo'lsa-da, yorib kirish xususiyati nihoyatda katta.

Radioaktiv moddalar ma'lum xususiy xossalari ega bo'lib, inson organizmiga ta'sir qilishi natijasida xavfli vaziyat vujudga kelishi mumkin. Radioaktiv moddalarning eng xavfli tomoni shundaki, uning ta'sirini inson organizmidagi sezish organlariga sezilmaydi. Ya'ni inson radioaktiv nurlar ta'sirida uzoq vaqt ishlashiga qaramasdan, ularning zararli ta'sirlarini mutlaqo sezmasligi mumkin. Buning natijasi esa ayanchli tugaydi. Shuning uchun ham radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, ayniqsa, o'ta ehtiyotkor bo'lish kerak. Inson organizmining radioaktiv nurlanishi ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

Tashqi tomondan nurlanish ma'lum tashqi nurlanuvchi manba ta'sirida kechganligi sababli, tarqalayotgan nurlarning kirib borish kuchi katta ahamiyatga ega. Kirib borish kuchi yuqori bo'lgan nurlarning organizmga zarari ham kuchliroq bo'ladi. Ichki nurlanish nur tarqatuvchi moddalar inson organizmining ichki tizmlariga, masalan, yemirilgan teri qatlamlari orqali qonga, nafas olish a'zolari, o'pka va shilimshiq moddalarga, ovqat hazm qilish a'zolariga tushib qolgan taqdirda ro'y beradi.

Bunda nurlanish nur tarqatuvchi modda qancha vaqt nurlansa yoki qancha vaqt davomida organizmda saqlansa, shuncha vaqt davom etadi. Shuning uchun ham

radioaktiv moddalarning katta parchalanish davriga va kuchli nurlanishga ega bo'lganda, ayniqsa, xavfli hisoblanadi. Radioaktiv nurlanishlarning biologik ta'siri organizmdagi atom va molekularlarning ionlanishi sifatida tavsiflanadi va bu o'z navbatida har xil kimyoviy birikmalar tarkiblarining o'zgarishiga va normal molekulyar birikmalarda uzilishlar bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida tirik hujayralardagi modda almashinuvining buzilishiga va organizmda biokimyoviy jarayonlarning ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Katta kuchdagi nurlanish ta'siri uzoq vaqt davom etsa, ba'zi bir hujayralarning halokati kuzatiladi va bu ayrim a'zolarining, hattoki, butun organizmning halokati bilan tugaydi. Radioaktiv nurlanishlar ta'sirida organizmning umumiy qon aylanish tizmining buzilishi kuzatiladi. Bunda qon aylanish ritmi susayadi, qonning quyilish xususiyati yo'qola boradi, qon tomirlari, ayniqsa, kapilyar qon tomirlari mo'rt bo'lib qoladi, ovqat hazm qilish a'zolarining faoliyati buziladi, odam ozib ketadi va organizmning tashqi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati kamayadi. Radioaktiv moddalarning qo'lga ta'sir qilishi oldin sezilmaydi. Vaqt o'tishi bilan qo'l qurushqoq bo'lib qoladi, unda yorilishlar kuzatiladi, tirnoqlar tushib ketadi. Radioaktiv nurlarning alfa va beta nurlari tashqaridan ta'sir ko'rsatganda organizmning teri qavati yetarlicha qarshilik ko'rsata oladi. Ammo bu radioaktiv nurlar ovqat hazm qilish a'zolariga tushib qolganda ulaning zararli ta'siri kuchayib ketadi. Ko'pchilik radioaktiv moddalar organizmning ba'zi bir qisimlarida yig'ilish xususiyatiga ega. Masalan, jigar, buyrak va suyaklarda yig'ilishi butun organizmni tezda ishdan chiqaradi. Ba'zi bir radioaktiv moddalar zaharli bo'lib, ularning zaharlilik darajasi eng xavfli zararli moddalarnikidan ham yuqori bo'ladi.

Organizmning nurlanish dozasini hisobga olib radioaktiv moddaning inson organizmidagi miqdorini baholash mumkin.

Nurlanish normalari

Radioaktiv izotoplar bilan ish bajariladigan sanoat korxonalarida, bu korxonalarda to'g'ridan-to'g'ri shu izotoplar bilan ishlayotganlardan tashqari, qo'shni xonalarda boshqa ishlar bilan shug'ullanayotganlar, shuningdek, sanoat korxonasi joylashgan zonada yashovchilar ham bir muncha radioaktiv nurlanishlar ta'siriga tushib qolishlarini hisobga olish kerak.

Ishchilari va boshqa ishlar bilan radioaktiv zonalarda shug'ullanayotgan va yashayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalari: xavfsiz oraliq masofalari bilan ta'minlash, nurlanish vaqtini kamaytirish, umumiy muhofaza vositalari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishdir. Bunda, radioaktiv nurlanishlar miqdorini o'lchash asboblaridan foydalanib nurlanish dozasini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ionlashtirilgan nurlanishlardan ishchilarni saqlash qoida va normalari hamda qo'llaniladigan himoya vositalari juda xilma-xildir. Asosiy normalovchi hujjat sifatida quyidagilardan foydalaniladi: «Radioaktiv xavfsizlik normalari (NRB-76)». «Radioaktiv moddalar va boshqa ionlashgan nurlanish manbalari bilan ishlovchilar uchun asosiy sanitariya qoidalari» (OSP-72); GOST 12.2.018-76 «SSBT. Rentgen qurilmalari. Xavfsizlikning umumiy talablari»; GOST 17.4.001-75 «SSBT. Ishchilari muhofaza qilish vositalari. Sinflari». Joriy qilingan normalar bo'yicha nurlanishning yo'l qo'yiladigan dozasi (YQD), shuningdek, ishlovchi uchun bir yillik nurlanish darajasi 50 yil davomida organizmda yig'ilgan taqdirda uning sog'lig'iga va avlodlari sog'lig'iga zarar yetmaydigan miqdorlari belgilangan .

Radioaktiv nurlanishlar kishi organizmining hammasiga birdan ta'sir ko'rsatmasdan, ba'zi bir a'zo va hujayralarini ko'proq zararlashi aniqlangan. Shuning uchun ham nurlanishning umumiy dozasi emas, balki organizmning qaysi qisimida radioaktiv nurlanuvchi moddalar yig'ilganligi hisobga olinadi. Chunki bu yig'ilgan qisimlardagi radioaktiv moddalar butun organizm falokatini ta'minlashi mumkin. Shuning uchun radioaktiv nurlanishlar xavfsizlik normalari NRB-76 bo'yicha, yo'l

qo'yilishi mumkin bo'lgan dozalari (YQD) ichki va tashqi nurlanishlar bo'yicha belgilanganda, nurlanuvchilar toifasi va xavfli a'zolar hisobga olinadi.

A-toifasi: ionli nurlanishlar manbalarida mehnat qilganliklari sababli, nurlanish ta'siriga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar.

B-toifasi: nurlanishlar bilan ish olib boriladigan sanoat korxonasi joylashgan joyda yoki unga yaqin zonalarda yashovchi shaxslar.

D-toifasi: mamlakatning hamma aholi yashash punktlari.

Ichki va tashqi nurlanishlar uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza (YQD) inson organizmining muhim qisimlarini 3 guruhga bo'lish bilan belgilanadi:

1) butun tana, qizil suyak iligi;

2) muskullar, qalqonsimon bez, yog to'plovchi hujayralar, jigar, buyrak taloq, ovqat hazm qilish a'zolari, o'pka, ko'zqorachig'i va boshqalar.

3) suyak to'qimalari, qo'l terisi, yelka, boldir va tovonlar.

A va B toifasiga kiradigan ishchilarning muhim xavfli a'zolarining ichki va tashqi nurlanishda yo'l qo'yiladigan dozasi quyidagicha:

Nurlanish ta'siridagi kishilar toifalari	Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan doza (yiliga ber hisobida, xavfli organlar guruhlari uchun)		
	I	II	III
A	5	15	30
B	0,5	1,5	3

Har qanday holatda ham 30 yil davomida yig'ilgan doza yo'l qo'yish mumkin bo'lgan dozadan 12 martadan ko'p o'lmasligi kerak. Nurlanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan dozasi A toifasidagi ishchilar 1 toifa a'zolari uchun quyidagi formula bilan aniqlanadigan dozadan ortib ketmasligi kerak.

$D < 5(N - 18)$, bunda, D — doza; N — ishchining yoshi, yil

Ishchilarning ichki nurlanishlarini kamaytirish uchun radioaktiv moddalari ochiq holatda ishlatishga yo'l qo'ymaslik, odam ichki a'z olariga, xonadagi havo muhitiga tushib qolmasligini ta'minlash, shuningdek, radioaktiv moddalar bilan qo'l, kiyim va xonadagi jihozlar yuzasini zararlanishdan saqlash kerak.

Ochiq holda ishlatilganda ichdan nurlantirish xavfi bo'lgan radioaktiv moddalar besh guruhga bo'linadi: A- nihoyatda yuqori nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar; B-yuqori nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar; D- o'rtacha nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar; E-kichik nurlanish aktivligiga ega bo'lgan izotoplar; F-nurlanish aktivligi juda kam bo'lgan izotoplar.

Radioaktiv moddalar bilan ochiq holda ishlaganda ularning zararli nurlanish aktivligiga qarab uch sinfga bo'linadi. Zararli nurlanish aktivligi bo'yicha III-IV-sinfga mansub moddalar bilan kimyo laboratoriyalarida ishlash mumkin. I va II sinf moddalar bilan esa maxsus jihozlangan ma'lum sanitariya-gigiena va texnik talabga javob beradigan xonalarda ish olib borish tavsiya etiladi. III-IV-sinf moddalarni ishlatganda ba'zi bir yengil operatsiyalami ish stolida, asosan, maxsus shamollatiladigan shkaflarda bajariladi. I va II sinf radioaktiv moddalar bilan ishlash asosan shamollatiladigan shkaflarda yoki maxsus bokslarda amalga oshiriladi.

Radioaktiv moddalar bilan ishlaganda, radioaktiv moddazarralari ish joylarini, odamning qo'llari va boshqa ochiq tana qisimlariga o'tirib qolishi, havo muhitiga o'tib qolishi va u yerda radioaktiv nurlanish manbalari hosil qilishi mumkin. Shuningdek, bu radioaktiv changsimon moddalar nafas yo'llari yoki teri orqali organizm ichki a'zolariga kirib qolishi mumkin.

Terining nurlanish dozasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoniyatlari bor. Buning uchun ish bajarilayotgan zonaning zararlanish darajasi aniqlanadi. Bunda ishlatilayotgan moddaning aktivligi va zararlangan yuzaning kattaligi hisobga olinadi.

Ichdan nurlanish dozasini hisoblash ancha qilin, chunki u bir qancha omillarga bog'liq. Teri, shaxsiy muhofaza aslahalari va xonalar ishchi yuzalarining yo'l

qo'yiladigan zararlanish darajasi aniqlanmaydi. Bular radioaktiv moddalar bilan ishlashda orttirilgan tajribalarga asoslangan sanitariya qoidalarida belgilanadi.

Radioaktiv nurlanishlarga qarshi kurash chora-tadbirlari.

Radiaktiv moddalar bilan ishlayotgan ishchilrni nurlanishdan muhofaza qilishning turli xil usullaridan foydalaniladi. Bunda nurlanish tashqi va ichki bo'lishini hisobga olinishi zarur. Tashqi nurlanishlardan saqlashda asosan nurlanish vaqtini belgilash nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofani saqlash va ekranlar yordamida to'siq vositalaridan foydalaniladi. Ishchining radioaktiv nurlanish zonasida bo'lish vaqti, uning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan dozada nurlanish olish vaqtidan oshirmasligi kerak. Nurlanish intensivligi nurlanayotgan modda bilan ishchi orasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional ekanligini hisobga olganda, ma'lum masofada turib ishlaganda ekranlardan foydalanmasa ham bo'ladi. Muhofaza ekranlari konstruksiyalari har xil bo'lib, ularning bir joyga o'rtilgan, harakatlantiradigan, qisimlarga bo'linadigan va stol ustida ishlatiladigan turlari bo'ladi. Muhofaza ekranlari har xil moddalarning nurlanish zarralarini o'tkazmaslik xususiyatiga asoslangan. Ekran qalinligini uning muhofaza qilishi zarur bo'lgan nurlanuvchi modda intensivligini hisobga olgan holda ma'lumotnomalarda keltirilgan jadval va nomogrammalar asosida qabul qilinadi.

Alfa nurlanishlardan saqlanishda ekran qarshiligini hisoblashning ehtiyoji yo'q. Chunki bu nurlanishlar harakat doirasi eng kuchli radioaktiv moddalarda ham 55 mmdan oshmaydi. Alfa nurlanishlarni oyna, pleksiglaz, folganing eng yupqa xili ham ushlab qolish imkoniyatiga ega.

Beta nurlanishlardan muhofaza qilishda beta nurlarining harakat masofalarini hisobga olgan holda ekran moddasi va qalinligi tanlanadi.

Gamma nurlanishlardan muhofaza qilishda og'ir metallardan foydalanish kerak. Masalan, qo'rg'oshin, volfram va boshqalar yaxshi natija beradi. O'zlarining

muhofazalanish xususiyatlariga ko'ra o'rtacha og'irlikdagi metallar ekran sifatida yaxshi natija beradi (po'lat, cho'yan, mis birikmalari va boshqalar).

Ekranlar yordamida ish joylaridagi nurlanishni xohlagan miqdorda kamaytirish imkoniyatlari bor. Rentgen qurilmalarini ishlatganda ikki xil nurlanish hosil bo'ladi. Bular to'g'ri tushayotgan nurlar va har xil yuzalarga tushib qaytgan nurlardir. Ish bajarilayotgan vaqtda bu nurlarning ikkalasidan ham muhofazalanish chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

Muhofaza ekranlarining puxta ishlayotganligi o'lchash asboblari yordamida tekshirib turiladi. Yopiq holatdagi nurlanuvchi moddalar bilan ishlaganda asosan tashqi nurlanishlarga qarshi muhofaza aslahalaridan foydalaniladi.

Sanoat korxonalarida ishchilar metall va kristallarning tarkibi tahlilini o'tkazayotgan vaqtda rentgen nurlanishlariga yoki lampa generatorlar ta'sirida tushib qolishlari mumkin. Ishchilarning rentgen nurlari ta'sirida kasallikka chalinib qolmasliklarini ta'minlash uchun ish bajariladigan xonalarni rentgen nurlarini o'tkazmaydigan materallardan tayyorlangan ekranlar bilan to'sish lozim. Qo'rg'oshin plastinkalari, qo'rg'oshinlashtirilgan rezina materallari bunday nurlarni yutish qobiliyatiga ega.

Rentgen qurilmalarini quruq, yog'och polli xonalarga o'matish kerak. Bu xonalarning shamollatish darajasi 3—5 dan kam bo'lmasligi kerak. Ochiq holatdagi radioaktiv moddalar bilan faqat bosimi kamaytirilgan, mustahkam yopiladigan shkaf, boks va kameralarda ish bajarish kerak. Qurilmaning mustahkam berkitilganligi tekshirib turiladi.

Ish bajarish joylariga qo'lqoplar o'rnatib qo'yilgan bo'ladi. Bunday qurilmalar uchun bosim kamaytirilishi 200 Pa dan kam bo'lmasligi va bu tekshirib turilishi kerak. Izotoplar bilan bajariladigan har xil operatsiyalarni bokslarda bajarish tavsiya etiladi. Bokslar pleksiglaz, alyuminiy, zanglamaydigan po'lat bilan qoplangan berk kameralardan iborat bo'lib, unga rezina qo'lqop yoki manipulyatorlar o'rnatilgan

bo'ladi. Boks ichidagi bosim ma'lum miqdorda kamaytirilgan bo'lib, bosim o'lchash asboblari bilan tekshirib turiladi. Bu qurilmalar radioaktiv moddalar yordamida turli vazifalarni bajarish imkoniyatini beradigan qurilmalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan binolarning devorlari, pol, shift va eshiklari tekis va silliq bo'lishi kerak. Hamma burchaklar, radioaktiv moddalardan tozalash oson bo'lsin uchun yarim aylana shakliga keltiriladi. Xonalarda shaxsiy muhofaza vositalari uchun havo berish tizmlari tashkil qilinadi. Bino maxsus sanitariya-gigiena jihozlariga ega bo'lishi kerak. Bular — yuvinish qurilmalari, dush xonalari, suv ichish fovoralari va boshqalardir. Bu qurilmalar tuzilishiga ko'ra shunga o'xshash sanitariya-texnik qurilmalaridan bir muncha farq qiladi. Masalan, qo'l yuvish qurilmalarida kran o'rniga pedal o'rnatiladi. Shuningdek, bu xonalarda albatta issiq suv ta'minoti bo'lishi shart. Kanalizatsiya tizmlari zararsizlantirish qurilmasiga ega bo'ladi. Radioaktiv moddalar maxsus zich yopiladigan idishlarda saqlanadi. Radioaktiv moddalar bilan ish bajariladigan va ular saqlanadigan binolag eshiklariga radioaktiv xavf belgisi qo'yiladi.

O'lchash asboblari:

Nurlanishlar bilan ish olib borayotganda inson organizmiga ta'sir ko'rsatayotgan nurlanish dozasini va ish joylaridagi nurlanish miqdorini bilib turish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'lchov asboblariga katta ahamiyat beriladi.

O'lchash asboblarining ishlash tizmi ionlanish, sintilatsiya va fotografiya usullariga asoslangan. Ba'zi bir gazlar radioaktiv nurlar ta'sirida elektr o'tkazuvchan bo'lib qolish qobiliyatiga ega. Ionizatsiya usuli shunga asoslangan.

3.3 Radiatsion xavfli obektlar va ularning turlari

Radiatsion obyektlarni me'yorda loyihalaganda, HRHKning radioaktiv xavfsizlik me'yorlari va takliflariga to'liq amal qilinganda har qanday kategoriyadagi aholini qayta nurlanishini oldi olinadi. Lekin rejalashtirilmagan va ko'zda tutilmagan hodisalar ro'y bersa, bunday holatlarda radiologik obyektlar personal uchun ham,

tashqi muhitdagi aholi uchun ham jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shunday rejalashtirilmagan hodisalar, halokatlar radioaktiv birikmalarni saqlash, tashish, ularni qo'llashda texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik, tabiiy jarayonlarning ta'siri natijasida ro'y berishi mumkin. Lokal halokatlar ionlovchi nurlanish manbalarini ishlatish qoidalari buzilganda, radioaktiv birikmalar solingan idishlar va taralarning shikastlanishi, ionlovchi nurlanish manbalarining yo'qotilishi, o'g'irlanishi va texnologik xonalarni radioaktiv ifloslanishi bilan bog'liq bo'ladi. Lokal radioaktiv halokatlar quyidagicha tasniflanadi:

1-sinf - faqat personalni tashqi nurlanishiga olib keluvchi halokatlar;

2-sinf - personalni faqat ichki nurlanishiga olib keluvchi halokatlar;

3-sinf - personalning ham tashqi, ham ichki nurlanish olishi bilan kechadigan halokatlar;

4-sinf - personalning ichki va tashqi nurlanish olishi va ishlab chiqarish muhitini ifloslanishi bilan kechadigan halokatlar;

5-sinf - ishlab chiqarish muhitining ifloslanishi, personalning tashqi va ichki nurlanish olishi va aholi o'rtasida ayrim shaxslarning zararlanishi

bilan kechadigan radioaktiv halokatlar. Yadro reaktorlari qisman AESlarda bo'ladigan halokat va favqulodda vaziyatlarda katta xavf tug'diradi. Halokatli iz qoldirgan radioaktiv halokatga 1986-yilda Chernobil AESida yuz bergan halokatni misol qilishimiz mumkin. 1990-yilda atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) tomonidan yadro reaktorida halokatning tashqi muhit va inson salomatligiga ta'sir qiluvchi oqibatlariga bog'liq holda bu hodisaning 'infini aniqlab beruvchi voqealar shkalasi ishlab chiqilgan va qabul qilingan edi.

XULOSA

Men o'z bakalavr bitiruv ishimda Adabe Flesh dasluri yordamida kvant fizikasiga oid Animatsiya harakatlarini yaratdim. Bakalavr bitiruv ishimni yaratish davomida men Adabe Flesh dasluri haqida nazariy ma'lumotlar olib, ularni amalda qo'lladim. Ushbu bakalavr bitiruv ishi "Adabe Flesh dasluri yordamida kvant fizikasidan laboratoriya mashg'ilotlari uchun Intiraktiv darslik yaratish" haqida bo'lib, bakalavr bitiruv ishi asosan zarralarning qanday tashkil topganligi va ular qanday harakatda bo'lishini aniimatsion harakatlantirishlar orqali tushuntirib berishdan iborat. Bakalavr bitiruv ishimning birinchi qisimida Mutimedia texnologiyalari, ularning ta'lim sohasida qo'llanilishi va Adabe kompaniyasi, Adabe Photoshop hamda Adabe Flesh dasluri haqida va yana Adabe Flesh dasluri Animatsiya harakatini yaratish haqida ma'lumot olishimiz mumkin. So'ngra siz umumiy natija bilan tanishishingiz mumkin. Bakalavr bitiruv ishi yaratishimdan asosiy maqsad shu mavzuga oid bilimlarimni va nafaqat shu mavzu balkim Mutimedia va grafka sohasi bo'yicha bilimlarimni mustahkamlashdir. Adabe Flesh dasluri hozirgi multiplikatsiya va Animatsiya sohalarida katta nufuzga ega. Bunday nufuzga Adabe Flesh dasluri Animatsiyalar yaratishdagi soddaligi, hamda daslurda professionallar ham, havaskorlar ham bir xilda ishlashi mumkinligi bilan erishgan. Bakalavr bitiruv ishi mavzusiga aynan Adabe Flesh dasluri yordamida Animatsiya harakatini yaratishga katta qiziqish bildirganimdan asosiy maqsad men kelajakda Mutimedia sohasini chuqur egallab shu soha professionaliga aylanish niyatidaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy axborot kommunikatsiya tizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”PQ-1989- sonly Qarori.
2. Karimov I.A “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” T-2008.
3. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2008
4. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayorlash milliy dasturi // Oliy ta‘lim. Me‘yoriy xujjatlar to‘plami. - T.:Sharq, 2001.
5. Gurvits M. Ispolzovaniye Adabe Flesh MX / M. Gurvits, L. Mak-Keyb ; spes. izd-e. – M. : Vilyams, 2003. – 704 s.
6. Rozenknop D.L. Mutimedia-dizayn vo Flesh 8. 2008y.
7. Morris D. Flesh 8. Sozdaniye Web-saytov 2006
8. Reyxard R. Adabe Flesh MX 2004 ActionScript CD-ROM. Vilyams. 2006
9. Dunayev V.V. Adabe Flesh MX 2004. ActionScript CD-ROM. Piter. 2005
10. Makar Djob. Adabe Flesh 8 s nulya CD-ROM. Ekom. 2008
Panfilov I. Flesh 8. Sozdaniye i publikatsiya Intiraktivnyx proyektov. Luchshiye knigi. 2007
11. “Flesh texnologiyalari” Sh.A. Nazirov Toshkent 2012 yil.
12. “Komputer grafkasi” Sh.I. Razzoqov Toshkent 2011 yil.
13. D.yormatova, Sh.ubaydullayev Ekologik Monitoring Toshkent 2012y.
14. Sodiqova G. Radiatsiya va uning inson salomatligiga ta’siri 2013y.
15. www.bilimdon.uz
16. www.Fleshkit.com
17. www.Fleshwm.nm.ru
18. www.websoft.ru
19. www.Fleshmo.ru